

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

**“ADVOKATLARNING MALAKASINI OSHIRISH” KURSI BO‘YICHA
O‘QUV DASTURI**
(kredit-modul tizimi uchun tayanch modullar dasturi)

2025-yil

Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil “___” _____ dagi ___-son qarori bilan tasdiqlangan.

I. TASHKILIY-USLUBIY BO‘LIM

1.1. Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq islohotlarining muhim tarkibiy qismi sifatida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlashning samarali institutlaridan biri bo‘lgan advokaturaning roli va ahamiyatini kuchaytirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, tahlillar ko‘rsatganidek, advokatura hanuzgacha odamlar ishonchini qozongan huquqni himoya qiluvchi institutga aylana olmadi, advokatlarning huquqlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sinqilik qilayotgan va ular tomonidan sifatli yuridik yordam ko‘rsatilishiga xalal berayotgan qator omillar mavjud.

Shu bois, advokatura tizimini tubdan takomillashtirish, professional yuridik yordam sifatini va advokat kasbining nufuzini oshirish, shuningdek sud ishini yuritishda tenglik va tortishuv prinsiplarini to‘liq ro‘yobga chiqarish maqsadida, ularning kasbiy faoliyatini yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitish va malakasini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu kursning o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydag‘i “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-67-son farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdag‘i “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 171-sun qarorida belgilangan topshiriq va vazifalarning ijrosini ta’minalash maqsadida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturida tinglovchilarini advokatlar faoliyatining o‘zgi xos xususiyatlariga oid nazariy bilimlarini kengaytirish hamda kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan.

1.2. O‘quv kursining maqsadi. Tinglovchilarning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko‘nikmalarini rivojlantirish:

advokatura tushunchasi, prinsiplari va huquqiy tartibga solish;

advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi;

advokatlar faoliyatida mediatsiya va da’vo kiritish masalalari;

advokatlar faoliyatida maxsus bilim talab etiladigan sohalar;

advokatning fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sud ishlarini yuritishdagi protsessual faoliyati.

1.3. O‘quv kursining vazifalari. Advokatlarning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko‘nikmalarini rivojlantirish:

1-modul bo‘yicha: Advokatura va uning vazifalari prinsiplari va tashkiliy shakllari, advokat maqomiga ega bo‘lish, advokatlik faoliyatining turlari, advokatning yordamchisi va advokat stajyorining ishini tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Advokatlar Palatasining advokaturaning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minalash bo‘yicha faoliyati;

2-modul bo‘yicha: Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi bo‘yicha O‘zbekiston qonunchiligi, advokatlik etikasi va advokat javobgarligi (shu jumladan intizomiy javobgarligi), advokatlik faoliyatida hujjatlar aylanishi va ish yurituvining asosiy qoidalari;

3-modul bo‘yicha: Advokatlik faoliyatida mediatsiya, advokatlar tomonidan sudlarga da’vo, ariza va shikoyatlarni elektron shaklda taqdim etish masalalari;

4-modul bo‘yicha: Advokatlik faoliyatida sud ekspertizasining ahamiyati, “Yuridik yordam” axborot tizimidan foydalanish qoidalari, advokat faoliyatida samarali muloqot psixologiyasi, advokatning ta’sirli nutqi, ommaviy nutq (omma oldidagi chiqishlar).

5-modul bo‘yicha: Advokatning fuqarolik, iqtisodiy, jinoiy, ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni sud muhokamasidagi vakilligi.

1.4. Kutilayotgan natijalar. Kurs yakunida tinglovchilar advokatura tushunchasi, prinsiplari va huquqiy tartibga solish, advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi, advokatlar faoliyatida mediatsiya va da'vo kiritish masalalari, advokatning fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ishlarini yuritishdagi protsessual faoliyatga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallaydilar.

1.5. O'qitish shakli: ishdan ajralmagan shaklda.

1.6. Tinglovchilar kontingenti: advokatlar.

II. O'QUV KURSINING MAZMUNI

2.1. O'quv kursining umumiy hajmi: O'quv kursini o'rghanish uchun **24 soat** ajratilgan.

2.2. O'quv kursining mavzular rejasি:

№	Modul va mavzular nomi	Mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar	
		O'quv soati	Jami
1-modul. Advokatura tushunchasi, prinsiplari va huquqiy tartibga solish			
1.	Advokatura va uning vazifalari. Advokat maqomiga ega bo'lish	1	1
2.	Advokatura faoliyatining prinsiplari va tashkiliy shakllari	1	1
3.	Advokatlik faoliyatining turlari. Advokatning yordamchisi va advokat stajyorining ishini tashkil etish	1	1
4.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Advokatlar Palatasining advokaturaning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash bo'yicha faoliyat	1	1
1-modul bo'yicha jami:		4	4
2-modul. Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi			
5.	Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi bo'yicha O'zbekiston qonunchiligi	2	2
6.	Advokatlik etikasi va advokat javobgarligi	1	1
7.	Advokatlik faoliyatida hujjatlar aylanishi va ish yurituvining asosiy qoidalari	1	1
2-modul bo'yicha jami:		4	4
3-modul. Advokatlar faoliyatida mediatsiya va da'vo kiritish masalalari			
8.	Advokatlik faoliyatida mediatsiya	2	2
9.	Advokatlar tomonidan sudlarga da'vo, ariza va shikoyatlarni elektron shaklda taqdim etish masalalari	2	2
3-modul bo'yicha jami:		4	4
4-modul. Advokatlar faoliyatida maxsus bilim talab etiladigan sohalar			
10.	Advokatlik faoliyatida sud ekspertizasining ahamiyati	1	1
11.	"Yuridik yordam" axborot tizimidan foydalanish qoidalari	2	2
12.	Advokat faoliyatida samarali muloqot psixologiyasi	1	1
13.	Advokatning ta'sirli nutqi. Ommaviy nutq (omma oldidagi chiqishlar)	2	2
4-modul bo'yicha jami:		6	6
5-modul. Advokatning fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ishlarini yuritishdagi			

protsessual faoliyat				
14.	Advokatning fuqarolik va iqtisodiy sud ishlari muhokamasidagi vakilligi	2	1	
15.	Advokatning jinoyat sudi ishlarini yuritishdagi ishtiroki	1	1	
16.	Advokatning ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishdagi ishtiroki	1	1	
17.	Advokatning ma'muriy sud ishini yuritishdagi vakilligi	2	2	
5-modul bo'yicha jami:		6	6	
Jami modullar bo'yicha:				24
2.3. O'quv materialining mazmuni				
1-modul. Advokatura tushunchasi, prinsiplari va huquqiy tartibga solish				
1-mavzu. Advokatura va uning vazifalari. Advokat maqomiga ega bo'lish.				
<p>Asosiy masalalar: O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida advokatura haqidagi huquqiy normalarlar. O'zbekiston advokaturasiga qo'yilgan vazifalarining amalga oshirilishi. Advokatning huquqiy maqomi.</p>				
2-mavzu: Advokatura faoliyatining prinsiplari va tashkiliy shakllari.				
<p>Asosiy masalalar: Advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplari. Advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari. Advokatning mustaqilligi qonunda belgilangan tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijozat berish, bu faoliyatni to'xtatib turish va tugatish.</p>				
3-mavzu. Advokatlik faoliyatining turlari. Advokatning yordamchisi va advokat stajyorining ishini tashkil etish.				
<p>Asosiy masalalar: Advokatdan va uning yordamchisidan va stajoridan advokatlik siri predmeti hisoblangan holatlар to'g'risida biron-bir tushuntirish yoki ko'rsatuvalar berishni talab qilish, shuningdek ular haqida tezkor-qidiruv faoliyatida, jinoyat ishlari, ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar va boshqa ishlarni yuritishda foydalanish uchun biron-bir material taqdim etishni talab qilishni man etish.</p>				
4-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Advokatlar Palatasining advokaturaning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash bo'yicha faoliyati.				
<p>Asosiy masalalar: Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarini ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek yuridik maslahatxonalarini hisobga olish. Advokatlik byurolarini ta'sis etgan advokatlar o'z faoliyatini mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda o'zlariga tegishli bo'lган turar joylarda amalga oshirishi mumkin, bunda advokatga mulk huquqi asosida tegishli bo'lган turar joylarni advokatlik byurosi faoliyatida foydalanish.</p>				
2-modul. Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi				
5-mavzu: Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi bo'yicha O'zbekiston qonunchiligi.				
<p>Asosiy masalalar: Advokatlik faoliyatining kafolatlari. Advokatning ijtimoiy huquqlari. "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati. Advokatlik faoliyatining asosiy prinsiplari. Davlat bilan advokatura o'rtasidagi o'zaro munosabatlari. Advokat tomonidan advokatura to'g'risidagi qonunchilik, advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodining buzilishi.</p>				
6-mavzu: Advokatlik etikasi va advokat javobgarligi (shu jumladan intizomiy javobgarligi).				
<p>Asosiy masalalar: Advokat maqomiga ega bo'lish. Advokatning kasb etikasi . Advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish. Advokatning ilmiy va pedagogik faoliyat. O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasidagi va uning hududiy boshqarmalaridagi faoliyat. Patent vakili va mediator sifatidagi faoliyati. Sharhnomaviy-huquqiy asosda davlat organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi faoliyat. Hakamlik sudlarida va xalqaro tijorat arbitrajlarida (sudlarida) suda sifatidagi faoliyati.</p>				

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida litsenziya berilishi.

7-mavzu: Advokatlik faoliyatida hujjatlar aylanishi va ish yurituvining asosiy qoidalari.

Asosiy masalalar: Advokatlik faoliyati ish yurituv hujjatlari. Hujjatlar yig‘majidlari nomenklaturasi asosida advokatlik tuzilmalarida yuritiladigan kitoblar. Advokatlik so‘rovi va dosesi.

3-modul. Advokatlar faoliyatida mediatsiya va da’vo kiritish masalalari

8-mavzu: Advokatlik faoliyatida mediatsiya.

Asosiy masalalar: Advokatlarni mediatsiya jarayonidagi ishtiroki. Advokatlik faoliyatini amalga oshirishda mediatsiya. Advokatning mediatsiya jarayonidagi harakatlari. Mediatsiya jarayoni. Advokatlar faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni mediatsiyada ishtiroki hamda ularning huquq va majburiyatları. Mediatsiyani qo‘llash va mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish. Mediatsiya jarayonining natijasi va u bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirish.

9-mavzu: Advokatlar tomonidan sudlarga da’vo, ariza va shikoyatlarni elektron shaklda taqdim etish masalalari.

Asosiy masalalar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4818-son qarorining mazmun-mohiyati. Sudlarning axborot tizimlarini davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, advokatlar tomonidan sudlarga da’vo, ariza va shikoyatlarni elektron shaklda taqdim etish masalalari, tartib-taomillari.

4-modul. Advokatlar faoliyatida maxsus bilim talab etiladigan sohalar

10-mavzu: Advokatlik faoliyatida sud ekspertizasining ahamiyati.

Asosiy masalalar: Sud-ekspertlik faoliyatining nazariy asoslari. Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish bo‘yicha umumiy qoidalar. Tadqiqotlarni o‘tkazish uchun yuboriladigan ish materiallarini rasmiylashtirish. Tadqiqotlarni o‘tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish.

11-mavzu: “Yuridik yordam” axborot tizimidan foydalanish qoidalari.

Asosiy masalalar: “Yuridik yordam” axborot tizimi. Tasodifiy elektron tarzda tanlab olish yo‘li bilan jismoniy shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishga advokatlarni jalb etish. Qonunchilikda nazarda tutilgan va davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan maxsus elektron axborot tizimi. Sud arizachining iltimosiga ko‘ra, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘rishi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokat jalb etiladigan paytga qadar sud ishning muhokamasini keyinga qoldiradi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e’tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerak.

12-mavzu: Advokat faoliyatida samarali muloqot psixologiyasi.

Asosiy masalalar: Muloqotning verbal, noverbal, paraverbal, rapport, kommunikatsiya, reprezentativ sensor kanal, prosodika, vizual, audial, kinestet, parafras, akustik, taktil (teri orqali tuyish), olfaktori (hid yoki hid hissi), ma'lumotni uzatishning paralingvistik vositasidalari foydalaniladi (nutq balandligi, ovoz tembri, imo-ishoralar, yuz ifodalari va hokazo), intonatsiya, ritm, membr, paralingvistik, ekstralinguistik turlari.

13-mavzu: Advokatning ta’sirli nutqi. Ommaviy nutq (omma oldidagi chiqishlar).

Asosiy masalalar: Nutq madaniyati inson umummadaniyatining bir qismi. Nutq madaniyati deyilganda til birliklaridan, jumladan lug‘aviy, grammatik va uslubiy vositalardan nutq jarayonida to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish nazarda tutiladi. Fikrni og‘zaki yoki yozma shaklda ifodalashda mantiqiy izchilikka rioya qilish.

5-modul. Advokatning fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ishlarini yuritishdagi protsessual faoliyatি

14-mavzu: Advokatning fuqarolik va iqtisodiy sud muhokamasidagi vakilligi.

Asosiy masalalar: Sud muzokalaralarda advokat vakilligi mazmuni va mohiyati. Sud muzokalaralarning ketma-ketligi. Fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy protsessual huquqda vakillik. Fuqarolar va tashkilotlarga huquqiy yordam ko'rsatish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, odil sudlovni amalgalash, qonuniyligka rivoja etish va uni mustahkamlash.

15-mavzu: Advokatning jinoyat sud ishlarini yuritishdagi ishtiroki.

Asosiy masalalar: Advokatning jinoyat protsessida ishtirokining huquqiy asoslari. Jinoyat protsessida advokat ishtirokining shakllari va vakolatlari doirasi. Advokatlik tuzilmalarining vakolatlarini aniqlashtirish va huquqiy maqomini belgilab berish hamda jinoyat protsessida ayblov va himoya taraflarining protsessual huquqlari tengligini ta'minlash.

16-mavzu: Advokatning ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishdagi ishtiroki.

Asosiy masalalar: Ma'muriy sudda taraflar advokatning yuridik yordamidan foydalanish, ma'muriy sud ishi yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa, o'z ona tilida ko'rsatuvalar berish va bu holda tarjimon xizmatidan foydalanish, ko'rsatuvalarini o'z qo'lli bilan yozib berish, ko'rsatuvalar berishda yozma qaydlar va hujjatlardan foydalanish.

III. O'QUV KURSINING O'QUV-USLUBIY VA MODDIY TEXNIK TA'MINOTI

3.1. Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri). – T., 2023.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri).

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (yangi tahriri).

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. Birinchi va Ikkinci qismlar.

Qyinoqlarga hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi BMT konvensiyasi. 1984.

Bola huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasi. 1989.

Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya. 1990.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga birinchi fakultativ bayonnomasi. 1966.

Xelsinkschiy zaklyuchitelnyi akt pervogo sammita glav gosudarstv i pravitelstv gosudarstv-uchastnikov SBSE. 1975.

Natsionalnye mehanizmy po podgotovke dokladov i osušchestvleniyu posleduyushchey deyatelnosti: Prakticheskoe rukovodstvo po effektivnomu vzaimodeystviyu gosudarstv s mejdunarodnymi pravozaščitnymi mehanizmami. – OON, Nyu-York i Jeneva, 2016.

AQSh - U.S. Government Publishing Office (GPO) (<https://www.govinfo.gov>).

O'quv adabiyotlari:

Qonun hujjatlari ta'sirini baholash tizimi: amaliy qo'llanma /F. Muxamedov, F. Karabaev, I. Bektemirov, A. Abidov. – T., 2016.

Natsionalnye mehanizmi po podgotovke dokladov i osushestvleniyu posleduyushchey deyatelnosti: Issledovanie po voprosu o vzaimodeystvii gosudarstv s mejdunarodnymi pravozashchitnymi mehanizmami. – OON, Nyu-York i Jeneva, 2016.

Otaxonov F.X. Shartnomalar, da'vo arizalari va hakamlik sudlari /Amaliy qo'llanma. – T.: «Adolat», 2016.

Huquqni muhofaza qilish organlariga oid xalqaro hujjatlar. To'plam. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T., 2004.

Mo'minov A., Tillaboev M. Inson huquqlari. Darslik. /Mas'ul muharrir A.X.Saidov - T.: Adolat, 2013.

Lukashuk I.L. Saidov A.X. Hozirgi zamon xalqaro huquqi. Darslik. –T.: Adolat, 2006.

Умархунов И.М. Международная договорно-правовая практика Республики Узбекистан. – Т., 2003.

Сборник международных договоров. ООН. Нью-Йорк, Женева. 1994.

Maxmudov I.I. Boshqaruв psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – T., 2006.

Xojimatova M. Nutq san'ati. O'quv qo'llanma.–T., Yangi asr avlodи, 2011.

JSTOR (<https://www.jstor.org>).

Directory of Open Access Books (DOAB) (<https://www.doabooks.org>).

Project Gutenberg (<https://www.gutenberg.org>).

Internet Archive (<https://archive.org>).

OpenStax (<https://openstax.org>).

MERLOT (Multimedia Educational Resource for Learning and Online Teaching) (<https://www.merlot.org>).

MIT OpenCourseWare (<https://ocw.mit.edu>).

World Digital Library (<https://www.wdl.org>).

The Online Books Page (<https://onlinebooks.library.upenn.edu>).

3.2. Internet resurslar:

<http://old.lex.uz>.

<https://paruz.uz>.

<https://www.minjust.uz>.

www.parliament.gov.uz.

www.senate.gov.uz.

www.minjust.uz.

www.uzmarkaz.uz.

www.nhrc.uz.

www.ombudsman.gov.uz.

www.un.org.

www.ohchr.org.

www.unesco.org.

www.childrenrights.net.

www.untreaty.un.org.

www.expert.psychology.ru.

www.psycho.all.ru.

www.psychology.net.ru.

www.psy.piter.com.

[https://www.eff.org/cases](http://www.eff.org/cases).

[https://technology-telecommunications.justia.com](http://technology-telecommunications.justia.com).

[https://cyberlaw.stanford.edu/litigation](http://cyberlaw.stanford.edu/litigation).

[https://www.uscourts.gov/court-opinions](http://www.uscourts.gov/court-opinions).

[https://www.courtlistener.com](http://www.courtlistener.com).

<https://www.bailii.org>.
<https://curia.europa.eu>.
<https://www.wipo.int/amc/en>.
https://cyber.harvard.edu/cyberlaw_case)
<https://www.natlawreview.com/topic/information-technology>.

3.3. O‘quv dasturini o‘zlashtirish va ta’lim jarayonlarini ta’minlashga mo‘ljallangan o‘quv va o‘quv-metodik materiallar. *O‘quv dasturiga kiritilgan barcha mavzular bo‘yicha o‘quv-metodik majmualar:*

- ma’ruza matni;
- taqdimot slaydlar;
- nazorat savollari va test topshiriqlari.
- keys-kazuslar

3.4.O‘qitish texnologiyasi: Interfaol o‘qitish texnologiyasi – tinglovchilarning o‘quv mashg‘ulotlarida o‘zaro hamkorlik qilishlari hamda faol qayta aloqa shakllaridan foydalangan holda tegishli o‘quv mashqlarini bajarish.

3.5. Ta’lim texnologiyasi yoki uslublarining turlari:

O‘quv jarayonida dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning amaliyotga yo‘naltirilgan zamонавий шакллари – muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishlash (“aqliy hujum” interfaol uslubini qo‘llagan holda va h.k.), hujjatlar loyihalarini tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar qo‘llaniladi.

O‘qish jarayonida klinik ta’lim, nizoli jarayonlarning imitatsiyasi hamda sayyor mashg‘ulotlar qo‘llanilishi mumkin.